

**TARIXIY XOTIRA VA ADABIY TASVIR: O‘QUVCHI-YOSHLARDA
TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH USULLARI****Abdijabborova Shahrizoda Bahromovna****Abduraxmonova Madina Norbek qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola tarix va adabiyot fanlarini integratsiyalashgan holda o‘qitish orqali o‘quvchilarning tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish masalasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim sharoitida fanlararo bog‘lanishlardan samarali foydalangan holda “StoryHistory” nomli interfaol onlayn platformani joriy etish usullari tahlil qilinadi. Platforma yordamida o‘quvchilar tarixiy voqealarni badiiy asarlar orqali chuqurroq anglash, tarixiy shaxslar obrazlarini qiyosiy o‘rganish, virtual sahnalashtirish va muhokamalarda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiy manbalar tahlili, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, kontent-tahlil va tajriba usullari qo‘llangan “StoryHistory” platformasi o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol muloqotga undaydi, shu bilan birga raqamli ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, interfaol o‘quv usullari, onlayn platforma, StoryHistory

Аннотация: Данная научная статья посвящена проблеме формирования у учащихся исторического мышления, критического мышления и творческих способностей посредством интегрированного преподавания истории и литературы. В исследовании анализируются методы внедрения интерактивной онлайн-платформы "StoryHistory" в современных условиях образования с эффективным использованием междисциплинарных связей. С помощью платформы учащиеся получают возможность глубже понимать исторические события через художественные произведения, сравнительно изучать образы исторических личностей, активно участвовать в визуализации и обсуждениях. В качестве методологии исследования использовались анализ литературных источников, сравнительный анализ, педагогическое наблюдение, контент-анализ и экспериментальные методы. Платформа "StoryHistory" повышает интерес учащихся к занятиям, побуждает их к активному общению и одновременно развивает цифровые навыки.

Ключевые слова: историческое мышление, критическое мышление,



интерактивные методы обучения, онлайн-платформа, StoryHistory.

Annotation: This scientific article explores the integration of history and literature subjects to develop students' historical thinking, critical reasoning, and creative abilities. The study analyzes methods of implementing the interactive online platform "StoryHistory" in modern education, which enables students to deeply comprehend historical events through literary works, conduct comparative analysis of historical figures, participate in virtual stagings, and engage in discussions. The research methodology includes analysis of literary sources, comparative analysis, pedagogical observation, content analysis, and experimental methods. The "StoryHistory" platform increases student engagement in lessons, encourages active communication, and simultaneously develops digital literacy.

Keywords: historical thinking, critical reasoning, interactive learning methods, online platform, StoryHistory.

KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamli o'zgarishlar jarayonida ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning tafakkur salohiyati va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Xususan, tarix – insoniyatning o'tmish tajribasi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganishga, adabiyot esa – o'sha jarayonlarning badiiy ifodasi, insoniy kechinmalar va ruhiy qiyofasini aks ettirishga xizmat qiladi. An'anaviy dars shakllari bilan cheklanib qolmasdan, onlayn loyiha ishlari, virtual muhokamalar, raqamli sahnalashtirish, elektron adabiy matnlar asosida tahliliy topshiriqlarni amalga oshirish orqali o'quvchilarni mustaqil izlanuvchanlikka undash mumkin[11].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy o'quvchi faqat kitobiy matnga asoslangan emas, balki raqamli muhitda faoliyat yurituvchi, ko'p manbali tahlil qila oluvchi va tezkor qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida shakllanishi zarur. O'quvchilar tarixiy voqeani badiiy asar syujeti bilan solishtirib, onlayn taqdimot yaratishlari, yoki ma'lum bir tarixiy shaxsni adabiy obraz bilan qiyosiy tahlil qilib, virtual muhokama forumida o'z qarashlarini himoya qilishlari mumkin.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, unda tarix va adabiyot fanlarini integratsiya qilish masalasi faqat nazariy asosda emas, balki onlayn loyiha ishlari modeli orqali tahlil qilinadi. Bu yondashuv o'quvchilarning bilim olish jarayonida nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ijtimoiy hamkorlik, muloqot madaniyati va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi[10].



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So‘nggi o‘n yilliklarda tarix va adabiyot fanlarini integratsiya qilish masalasi xalqaro ilmiy hamjamiyatda keng muhokama qilinmoqda. S. Wineburg tarixiy tafakkurni shakllantirish jarayonini “inson ongida tabiiy ravishda yuz bermaydigan, balki maxsus pedagogik ta’sir orqali o‘zlashtiriladigan kognitiv faoliyat” deb ta’riflaydi. Bu yondashuv tarixni voqealar majmui sifatida emas, balki murakkab talqin jarayoni sifatida o‘rgatish zarurligini asoslaydi. Seixas va Morton esa tarix ta’limida “katta oltita tarixiy tafakkur tushunchasi”ni (The Big Six) ilgari surib, ular orasida tarixiy ahamiyat, dalillarga asoslanish, sabab-natija munosabatlari, tarixiy nuqtai nazar, axloqiy o‘lchov va tarixiy tafakkurning vaqtga mos talqini kabi kategoriyalarni ajratadi. Bu yondashuv integrativ ta’limda adabiyot materiallarini ham tarixiy kontekstda qo‘llashga imkon beradi. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirishning asosi ijtimoiy hamkorlik va faol muloqotdir. Shu nuqtai nazardan, tarixiy voqealarni badiiy asarlar orqali muhokama qilish o‘quvchilarning hamkorlikdagi izlanishlarini va mustaqil fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi. Badiiy asarlar shuningdek tarixiy voqealarga emosional jihatdan bog‘lanish, hissiy bilishni shakllantirish va kontekstual tafakkur rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

O‘zbek tadqiqotchilari ham ushbu masalaga e’tibor qaratgan. B.Xoliyev tarix darslarida innovatsion metodlardan foydalanishning samaradorligini ta’kidlab, badiiy adabiyot namunalarini tarixiy manbalar bilan bog‘lab tahlil qilish o‘quvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishda muhim vosita ekanini ko‘rsatadi. G. Salomov esa integratsiya orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ong shakllanishi mumkinligini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, M. Yusupova o‘z ilmiy ishlarida zamonaviy ta’lim texnologiyalarining tarix va adabiyot integratsiyasidagi o‘rnini yoritib, “Onlayn loyiha ishlari va virtual muhokamalar o‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag‘batlantiradi” deb ta’kidlagan[9].

Maqolani yozishda quyidagi metodlardan foydalanildi: -Adabiy manbalarni tahlil qilish metodi – o‘zbek va jahon olimlari tadqiqotlari o‘rganildi, integrativ ta’limga oid ilmiy maqola va monografiyalar tahlil qilindi. Shu orqali badiiy asar va tarixiy manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. -Qiyosiy tahlil metodi – tarix va adabiyot fanlarining o‘zaro aloqador jihatlari xalqaro va mahalliy tajriba asosida taqqoslandi. Shu yondashuv o‘quvchilarga biror voqeani turli nuqtai nazardan tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. -Pedagogik kuzatuv metodi – tarix darslarida badiiy matnlardan foydalanish tajribasi o‘rganildi. Bu metod orqali o‘quvchilarning dars davomida faol ishtirok etishi, tarixiy voqealarni talqin qilish va munozara qilish qobiliyatlari baholandi.



Learning and Sustainable Innovation

-Tajriba-sinov metodi – ayrim onlayn loyiha ishlarida integratsiyalashgan dars shakllari qo‘llanilib, ularning samaradorligi o‘rganildi[13].

NATIJALAR

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarix va adabiyot fanlarini integratsiya qilgan holda onlayn loyiha ishlari quyidagi samara berishini aniqladik: -Tarixiy tafakkur rivoji – O‘quvchilar badiiy asarlar orqali tarixiy voqealarni chuqurroq tushunish va ularni kontekst asosida tahlil qilish imkoniga ega bo‘ldilar. Masalan, S. Wineburgning tadqiqotlari tarixiy tafakkur inson ongida tabiiy ravishda shakllanmaydi, balki maxsus pedagogik ta‘sir orqali rivojlanadi, degan fikrni tasdiqlaydi[8].

Tanqidiy fikrlash qobiliyatining oshishi – Adabiy parchalarni tahlil qilish va tarixiy shaxslarni taqqoslash orqali o‘quvchilar turli manbalarni solishtirish, dalillarga asoslanib qaror qabul qilish va tarixiy voqealarning sabab-natija munosabatlarini aniqlash qobiliyatini oshirdi. Onlayn loyiha ishlarining samaradorligi – Integratsiyalashgan onlayn platformalarda virtual sahnalashtirish va dramatisatsiya tajribasi o‘quvchilarning faolligi va ishtirokini sezilarli darajada oshirdi. Bunda o‘quvchilar guruh bo‘lib ishlash, muammolarni hal qilish va tarixiy voqealarni interfaol tarzda izohlash imkoniga ega bo‘ldilar.

“StoryHistory” platformasini yaratish va undan foydalanish natijalari quyidagicha bo‘ldi: -O‘quvchilarning tarixiy tafakkuri rivojlandi. Onlayn platforma orqali badiiy matnlar, tarixiy qahramonlar va voqealar interfaol tarzda tahlil qilinishi natijasida o‘quvchilar voqealarning sabab-natija munosabatlarini chuqurroq tushunishga erishdilar. Shu bilan birga, tarixiy voqealarga shaxsiy nuqtai nazardan yondashish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. -Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari mustahkamlandi. Platformadagi virtual muhokama maydonchalari va loyiha ishlari orqali o‘quvchilar turli tarixiy talqinlarni taqqoslab, dalillarga asoslangan baholar berishni o‘rgandilar. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirdi[6].

MUHOKAMA

Olingan natijalar tarix va adabiyot fanlarini integratsiya qilish orqali tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchilar badiiy matnlar va tarixiy manbalarni birlashtirib tahlil qilganda, ularning tarixiy voqealarga shaxsiy nuqtai nazardan yondashish qobiliyati sezilarli darajada oshadi. Bu natija Wineburg va Seixas & Morton tomonidan ilgari surilgan tarixiy tafakkur konsepsiyalari bilan uyg‘un keladi. Mazkur tadqiqot doirasida taklif etilgan “StoryHistory” platformasi ana shunday maqsadlarga xizmat qiluvchi raqamli o‘quv muhiti sifatida loyihalashtirilgan. Platformaning asosiy tuzilmasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: “Tarix sahnasi” (Virtual Stage), “Adabiy



ko'zgu" (Literary Mirror), "Virtual bahs" (Discussion Forum), "Ijodiy topshiriqlar" (Creative Tasks). "StoryHistory" platformasining metodik ustunligi shundaki, u Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga tayanadi, ya'ni o'quvchilar faol hamkorlikda yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z intellektual salohiyatini to'liq ro'yobga chiqaradi[7].

XULOSA

Yaratilgan "StoryHistory" nomli interfaol platforma shu maqsadga xizmat qiluvchi yangi o'quv muhitini yaratadi. Platformaning onlayn formatda tashkil etilishi o'quvchilarga raqamli vositalar yordamida tarixiy voqealarni sahnalashtirish, ularni interfaol tahlil qilish va o'z fikrini himoya qilish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda raqamli madaniyat, muloqot, refleksiya va tarixiy empatiya kabi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim omil bo'ldi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, "StoryHistory" platformasidan foydalanish: tarixiy tafakkur va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi; adabiy materiallar asosida tarixiy kontekstni chuqurroq anglashga yordam beradi; o'quvchilarda ijodiy yondashuv va raqamli faoliyat ko'nikmalarini mustahkamlaydi; o'qituvchilar uchun esa interfaol metodik vosita sifatida yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, "StoryHistory" loyihasi nafaqat fanlararo integratsiyaning samarali modelini taklif etadi, balki o'quvchilarda tarixni tushunish, his qilish va badiiy idrok orqali anglash madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy o'quv texnologiyasi sifatida qo'llanishi mumkin. Kelgusida ushbu platformani yanada takomillashtirish, sun'iy intellekt asosida avtomatik tahlil tizimlarini joriy etish va o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar to'plamini ishlab chiqish tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi[12].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva S. Integratsiyalashgan darslar metodikasi. Toshkent: Nihol. 2019.
2. Barton K. C. & Levstik L. S. Teaching History for the Common Good. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2004.
3. Jo'rayev M. Adabiyot va tarix: pedagogik izlanishlar. Toshkent: Ma'rifat. 2018.
4. Monte-Sano C. Students' historical thinking in the classroom. Theory & Research in Social Education, 39(2). 2011.
5. Qodirov R., Xolmuhamedova M. Fanlararo bog'lanishlar va ularni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi. 2015.



6. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
7. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.
8. Mohigul Shavkatovna Xolova, & Yakub Saydulloyevich Ochilov (2021). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academic research in educational sciences*, 2 (6), 54-57. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01083
9. Saydulloyevich, O. Y., & Kizi, J. N. Z. (2022). Methods Of Developing Labor Education At School And In The Family. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 57-60.
10. Saydulloyevich, Y., & Kizi, N. (2022). Analysis of pedagogical problems of gender differences in resolving conflict situations. *International Scientific Research Journal*, 3(3), 154-157.
11. Saydulloyevich, O. Y., & Raxmonovich, I. R. Factors Of Orientation Of Students To The Teaching Profession. *JournalNX*, 317-319.
12. Saidulloyevich, Y. O. (2022). Comments and explanations on the works of the great mutaffakkir imam ghazali. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 3(12), 241-244.
13. Saydulloyevich, Y. O., & Abdullaevna, M. M. (2022). Improvement of methodology of use of national ananas in teaching pedagogical sciences in the system of professional education.